

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
UO'K: 336.22(575.1)**

TURAYEV ALIJON AKMAL O'G'LI

**SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ MEXANIZMI
VOSITASIDA TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:

iqtisodiyot fanlari doktori(DSc) B.B.Ibragimov

Toshkent – 2024

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I BOB	IQTISODIYOTNI SOLIQ MEXANIZMI ORQALI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	
1.1-§.	Soliq mexanizmi orqali soliq to‘lovchilar faoliyatini tartibga solishning nazariy masalalari.....	11
1.2-§.	Soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq mexanizmidan foydalanish masalalari.....	18
1.3-§.	Iqtisodiyotni soliq mexanizmi orqali tartibga solishning huquqiy asoslari.....	35
	Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	43
II BOB	SOLIQ TO‘LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ MEXANIZMI ORQALI TARTIBGA SOLISH AMALIYOTI TAHLILI	
2.1-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga soliq siyosatining ta‘siri tahlili.....	44
2.2-§.	Soliq to‘lovchilar faoliyatini investitsiyalar orqali rag‘batlantirish.....	60
2.3-§.	Soliq mexanizmlari soliq to‘lovchilar faoliyatiga ta‘sirini baholash yo‘llari.....	77
	Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	92
III BOB	SOLIQ MEXANIZMI ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH	
3.1-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini soliq mexanizmi orqali tartibga solishning samaradorligini oshirish.....	93
3.2-§.	Soliq to‘lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi orqali tartibga solishning xorij tajribasi.....	105
3.3-§.	Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rivojlantirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanishni takomillashtirish.....	111
	Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	115
	XULOSA.....	117
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	119
	ILOVALAR.....	133

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global moliyaviy beqarorlikning kuchayishi sharoitida budget tushumlari barqarorligini ta'minlash soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishning ahamiyatini oshirmoqda. Olimlar, siyosatchilar va biznes rahbarlari soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishda "soliq munosabatlarning samaradorligi va natijaviyligini oshirish vositasi sifatida, turli toifadagi soliqqa tortish tartibi va soliq solinadigan bazani aniqlashdagi tafovutlarni olib tashlashni taklif qiladi"¹. Jahon bankining tavsiyasida "soliq bazasini kengaytirish va chuqurlashtirish orqali ichki resurslarni safarbar qilish mamlakatning tashqi moliyalashtirishga (masalan, xalqaro yordam, rivojlanish yordami va chetdan qarz olish) qaramligini kamaytiradi, shu bilan birga hukumatning javobgarligi, tezkorligi va institutsional salohiyatini yanada kengroq yaxshilashga yordam beradi"² deb ta'kidlangan. Bu esa soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlarni olib borishni talab etadi.

Xalqaro amaliyotda, soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Iqtisodiyotni soliq mexanizmi orqali tartibga solishda soliq maslahati xizmatlari ko'rsatish tizimini, soliq auditi va kameral soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar summalarini va moliyaviy sanksiyalarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq hisobotlarini tuzish va taqdim etish tizimini tahlil qilishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish, soliq yuki darajasini aniqlash amaliyoti orqali soliq mexanizmi samaradorligini baholash, elektron soliq tizimiga bo'lgan munosabat va soliq qonunchiligiga rioya qilish o'rtasidagi munosabatlarda elektron soliq tizimini qabul qilish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

¹ Jorgenson, D. W., & Yun, K.-Y. (2013). Taxation, efficiency and economic growth. In P. Dixon & D. Jorgenson (Eds.), *Handbook of Computable General Equilibrium Modeling* (Vol. 1) (pp. 659-741). Amsterdam: Elsevier.

² Innovations in Tax Compliance, February 17, 2022. - <https://www.worldbank.org/en/topic/macroeconomics/brief/innovations-in-tax-compliance>

O‘zbekiston Respublikasida soliq to‘lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda. Tahlillarga ko‘ra soliq ma‘muriyatchiligi raqamlashtirilishi oqibatida “Mobil to‘lov provayderlari, elektron kassa apparatlari, onlayn bozorlar va boshqa raqamli manbalardan olingan global ma‘lumotlar hajmi 2020-yildan 2024-yilgacha qariyb uch barobar oshganligini ko‘rishimiz mumkin”³. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini soliqlar orqali tartibga solishning natijaviyligini oshirish soliq solishning xorij tajribasini o‘rganish va uning ijobiy tomonlarini mamlakatimiz amaliyotida qo‘llashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”, 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-iyundagi PF-162-son “Soliq ma‘muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 4-sentyabrdagi PQ-292 son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son “O‘zbekiston Respublikasining «2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida»gi qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda

³ <https://blogs.worldbank.org/voices/why-tax-administrations-are-embracing-digital-transformation>

madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Soliq toʻlovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar K.James, Julia Kagan, L.I.Goncharenko, I.A.Mayburov, A.D.Danilov, O.V.Kachur, A.A.Abakulova, L.V.Barulin, M.M.Shadurskaya, V.A.Krasnitskiy, N.Z.Zotikov, Ye.V. Smirnova va boshqalarni kiritish mumkin⁴.

Oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlaridan E.F.Gadoyev, Sh.A.Toshmatov, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov, U.V.Gafurov, B.E.Tashmuradova, B.I.Isroilov, N.R.Kuziyeva, N.B.Ashurova, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, S.K.Xudoyqulov, B.B.Ibragimov va boshqalarning ilmiy ishlarida soliq toʻlovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishning ayrim jihatlar oʻrganilgan⁵.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat

⁴ James K. "Exploring the Origin and Global Rise of VAT," Manash University, Melbourne. 2011. Julia Kagan. Indirect Tax: Definition, Meaning, and Common Examples. Updated April 04, 2022. <https://www.investopedia.com/terms/i/indirecttax.asp>, Goncharenko, L. I. Налоги и налоговая система Российской Федерации: учебник и практикум для академического бакалавриата / отв. ред. Л. И. Гончаренко. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 524 с. Майбуров И. А. Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям «Экономика» и «Менеджмент», специальностям «Экономическая безопасность», «Таможенное дело» / И. А. Майбуров [и др.]; под ред. И. А. Майбурава. — 7-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2018. — 503 с. Абакулова А. А. Шадурская М. М., Налоговое администрирование в условиях цифровизации экономики. Финансы и кредит. 2022. В.А.Красницкий Налоговое администрирование. <https://wiseeconomist.ru/poleznoe/29668-nalogovoe-administrirovanie>. 25.02.2023. Зотиков Н.З. Налоговое администрирование, его влияние на налоговую нагрузку. Вестник Сургутского государственного университета. 2022;(1 (35)):26-37. <https://doi.org/10.34822/2312-3419-2022-1-26-37>. Смирнова Е.В. Совершенствование налогового администрирования НДС в интересах государства и налогоплательщиков. ЖУРНАЛ. Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. №1 2018.

⁵ Gadoyev E.F. va b. Bilvosita soliqlar: qoʻshilgan qiymat soligʻi, aksiz soligʻi. Toshkent: «NORMA», 2011. 327 b.; Toshmatov Sh.A. Qoʻshilgan qiymat soligʻi. Monografiya. Toshkent.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004. -160 b.; Malikov T.S., Haydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. - 556 b.; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – T., 2017.; Tashmuradova B.E. Qoʻshilgan qiymat soligʻi bazasini aniqlash va hisoblash xususiyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-yil.; Кузиева Н.Р. Совершенствование законодательных основ создания деятельности и налоговых режимов предприятий экспортёров в свободных экономических зонах Узбекистана. Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. i.f.d. (DS) Dissertatsiyasi. T: 2018 yil; Urmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari: Monografiya/ T.: Iqtisod-Moliya, 2018 y. 240 b.; Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot. Monografiya. – T.: Moliya, 2016. 192 b.; Xudoyqulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoreferati. T., 2019. 77 b.; Ibragimov B.B. Soliq maʼmuriyatchiligi: muammo va yechimlar.T.: "Noshirlik yogʻdusi", 2022. 226 b.

iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

iqtisodiyotni soliq mexanizmi orqali tartibga solishning nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qilish;

soliq maslahati xizmatlari ko'rsatish tizimi amaliyotini tahlil qilish va soliq xizmatini ko'rsatish samaradorligini oshirish va xizmatlar tarkibini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

soliq majburiyatlari ijrosi samaradorligini tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

soliq auditi va kameral soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar summalarini va moliyaviy sanksiyalarni undirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid takliflar kiritish;

soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi orqali tartibga solish masalalarini o'rganish va uni takomillashtirishga oid takliflar kiritish;

soliq hisobotlarini tuzish va taqdim etish tizimini tahlil qilish asosida hisobotlarni soliq organlari tomonidan shakllantirish tartibini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

soliq mexanizmi samaradorligini baholash maqsadida soliq yuki darajasini aniqlash amaliyotini tahlil qilish va uni aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida tavsiyalar ishlab chiqish;

soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishning xorij tajribasini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi soliq to'lovchi korxonalar faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib soliq to‘lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, kuzatish, taqqoslash, statistik, qiyosiy tahlil, monografik kuzatuv va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

soliq xavfi darajasi tahlilida xarajatlar va daromadlar miqdori, soliq majburiyatlarining o‘z vaqtida bajarilishi, sof foydaning tovarlar va xizmatlar realizatsiya qilishda olingan (daromad aksiz va qo‘shilgan qiymat solig‘isiz) hisoblangan miqdori hamda xarajatlarga nisbati kabi rentabellik ko‘rsatkichlarini xavf mezonlari tarkibiga kiritish orqali soliq xavfini aniqlash imkoniyatini oshirish taklifi asoslangan;

soliq maslahati xizmatlari tarkibiga soliqqa oid tavakkalchiliklarni tahlil qilish hamda baholash, mijozga soliq imtiyozlarini qo‘llashga doir tavsiyalar berish xizmatlarini kiritish orqali soliq xizmatlari ko‘rsatish hajmini oshirish taklifi asoslangan;

soliq auditi va kameral soliq tekshiruvlari natijalarida budjetga qo‘shimcha hisoblangan soliqlarni olti oy muddatda bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyatini berish orqali soliq to‘lovchilar majburiyatlari ijrosini moliyaviy faoliyatga salbiy ta‘sirini kamaytirish asoslangan;

soliq nazorati tadbirlari davomida soliq organlari tomonidan shakllantirilgan soliq hisoboti bilan soliq organidagi yangilangan ma‘lumotlar o‘rtasida tafovut, xatolar aniqlangan holatlarda soliq to‘lovchilarga soliq organlariga aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar bo‘yicha izoh taqdim etish majburiyatini yuklash orqali soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro hamkorligi va ishonchini oshirish hamda soliq huquqbuzarliklar darajasini kamaytirish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

soliq majburiyati atamasining takomillashtirilgan ta‘rifi tavsiya qilingan;

soliq to'lovchilarning tanloviga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha soliq hisobotlarini soliq organlari tomonidan avtomatik tarzda shakllantirish tartibini joriy etish asoslangan;

soliq mexanizmi samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish maqsadida soliq yuki ko'rsatkichini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha aniqlash yo'llari taklif etilgan;

soliq maslahati xizmatini soliq mexanizmining tartibga solish elementi tarkibiga kiritilish taklifi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishga oid nazariy-metodologik va soliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan respublikada xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliq munosabatlari va soliq qonunchiligiga to'liq rioya etishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqiladigan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Soliq to'lovchilar faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

soliq xavfi darajasi tahlilida xarajatlar va daromadlar miqdori, soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi, sof foydaning tovarlar va xizmatlar realizatsiya qilishda olingan (daromad aksiz va qo'shilgan qiymat solig'isiz) hisoblangan miqdori hamda xarajatlarga nisbati kabi rentabellik ko'rsatkichlarini xavf mezonlari tarkibiga kiritish orqali soliq xavfini aniqlash imkoniyatini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida Nizom"da o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 18-yanvardagi 06-05478-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq xavfini aniqlash imkonini o'rtacha 2 foizga ortishiga erishilgan;

soliq maslahati xizmatlari tarkibiga soliqqa oid tavakkalchiliklarni tahlil qilish hamda baholash, mijozga soliq imtiyozlarini qo'llashga doir tavsiyalar berish xizmatlarini kiritish orqali soliq xizmatlari ko'rsatish hajmini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 4-avgustda qabul qilingan "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-787-son qonunning 9-moddasida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 18-yanvardagi 06-05478-son dalolatnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etilishi soliq xizmatlari ko'rsatish hajmini 7 foizga o'sishiga xizmat qilgan;

soliq auditi va kameral soliq tekshiruvlari natijalarida budjetga qo'shimcha hisoblangan soliqlarni olti oy muddatda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish orqali soliq to'lovchilar majburiyatlari ijrosini moliyaviy faoliyatga salbiy ta'sirini kamaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrda O'RQ-891-sonli Qonuni bilan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2024-yil 18-yanvardagi 06-05478-son dalolatnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida

o‘rtacha 1 foiz soliq to‘lovchilar soliq qarzlarini bo‘lib to‘lash evaziga aylanma mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniga ega bo‘lgan;

soliq nazorati tadbirlari davomida soliq organlari tomonidan shakllantirilgan soliq hisoboti bilan soliq organidagi yangilangan ma’lumotlar o‘rtasida tafovut, xatolar aniqlangan holatlarda soliq to‘lovchilarga soliq organlariga aniqlashtirilgan soliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar bo‘yicha izoh taqdim etish majburiyatini yuklash orqali soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro hamkorligi va ishonchini oshirish hamda soliq huquqbuzarliklar darajasini kamaytirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-oktyabrdagi 548-son qarori bilan tasdiqlangan “Soliq to‘lovchining tanloviga ko‘ra soliq organlari tomonidan soliq hisobotini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ning 14-bandida inobatga olingan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 18-yanvardagi 06-05478-son dalolatnomasi). Taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘zaro hamkorligi darajasi, taraflarga bo‘lgan ishonchlilikni oshirish hamda soliq huquqbuzarliklari sonini kamaytirish imkoni yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 141 betni tashkil etadi.